

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA LUG'ATLARDAN FOYDALANISHDA  
KREATIV XUSUSIYATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALASI**

*Homidova Zarina Rustam qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich ta'lurma dars davomida lug'atlardan foydalananishda kreativ xususiyatlarni rivojlantirish masalasining mohiyatini ifodalash turli xil usullar va metodikalar orqali asoslab berilgan.

**Kalit so`zlar:** So`z, lug`at, nutqiy kreativlik, leksikografiya, leksikologiya, nutq, imloviy savodxonlik, kontekst, atama, imloviy lug`at, ibora, tasviriy ifoda, dunyoqarash, kreativlik.

**KIRISH.** Bugungi kunda ta`lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bu o`quvchilarining har tomonlama kreativligini oshirishdir. Shu o`rinda boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o`qitish, nutq madaniyatini o`stirish, yozma va og`zaki nutq mashqlarini uyg`un holatda olib borishdir. O`z navbatida lug`atlar bilan ishlash ham kreativlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki lug`atlar bilan ishlash o`quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so`z boyligini orttiradi. O`quvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi. Tildagi jamiki so`zlar, ularning tarixi, izohi, imlosi kabi muhim masalalar bilan lug`atshunoslik o`rrganadi. Lug`atlar qadimdan yaratilib kelingan. Masalan, Mahmud Qoshg`ariy tomonidan XI asrda yaratilgan “Devoni lug`atit-turk”, XVI asrda Usmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lug`atlari tarixda bizga ma`lum.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** So`z tilning ma`no bildiradigan asosiy birligidir. So`z va so`z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo`lgan Barcha so`z va iboralarning yig`indisi lug`lat tarkibi yoki leksika deyiladi. Leksikologiya o`zbek tilining lug`at tarkibini o`rganadigan bo`limdir. Leksikologiya lug`at tarkibidagi so`zlarning nutqda ma`no ifodalash xususiyati, qo`llanish faolligi, boyib borishi, ba`zi so`zlarning eskirib, iste`moldan chiqib ketishi, ma`no ko`chish hodisasi kabilarni o`rganadi. Shu sababli ham leksikologiya lug`at ustida ihlash metodlarining lingvistik asosi hisoblanadi.

Kishining lug`at boyligi qanchalik boy va rivojlangan bo`lsa, uning nutq ham shunchalik boy bo`ladi, o`z fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug`atning boyligi, xilma - xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o`stirishning muhim sharti hisoblanadi. O`quvchi

lug`atining boyishiga ,birinchi navbatda, uni o`rab ilgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o`qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo`lgan muloqotlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo`lishi natijasida so`z, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so`zlarni o`rganadi, ularni o`z so`zlariga aylantiradi.

Boshlang`ich ta`limda lug`at ustida ishslashning umumiy yo`l- yo`riqlari, yo`nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo`lsa-da, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo`lmaydi. Lug`atlar ustida ishslash uchun maxsus darslar ajratilmaydi. O`quvchilar barcha predmetlarni o`rganishda, asosan, ona tili va o`qish darslik materiallarini o`rganish bilan bog`liq holda olib boradi. Ona tili hamda o`qish darslarida lug`at ustida ishslash o`quvchilar nutqini o`stirishga, yozma savodxonligini shakllantirishga, so`z boyligini boyitishga nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish 1-sinf danoq boshlanadi va butun o`quv jarayonida davom ettiriladi.

Lug`at- imlo savodxinligini oshirish, so`z boyligini kengaytirishning muhim manbaidir. Maktabda o`quvchilarning nutqiy kreativligini oshirishning muhim vazifalaridan biri lug`at ustida ishslashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo`nalishlarini ajratish va asoslash, o`quvchilarning lug`atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Lug`atlardan foydalanish va ular ustidan ishslash malakasini shakllantirish , avvalo, ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki, ehtiyoj sezilmasa, o`quvchi lug`atlarga murojaat qilmaydi. Ma'lum bir so`zning imlosi, ma`nosi, ma`nodoshi, qarama-qarshi ma`nosi, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining lug`atlar ustida ishslash jarayonida kreativligini oshirish uchun quyidagi metodlarni qo`llash yaxshi samara beradi:

1. Badiiy asar o`quvchilar nutqini oshirish uchun eng muhim va ishonarli manbadir. O`qituvchi hafta davomida o`quvchilarga turli ertaklarni o`qittirib, notanish bo`lgan so`zlarni ajratib, uning ma`nosini tushintirishi va kelasi badiiy asarni o`qilguncha bu so`zlarni yozdirib yodlattirishi zarur. Chunki, bolalar o`zbek tilini yuksak badiiy obrazlar orqali o`zlashtiradilar.

2.O`quvchilar lug`atiga aniqlik kiritish. Bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) o`quvchi puxta o`zlashtirmagan so`zlarning ma'nosini to'liq o`zlashtirish, ya'ni shu so`zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so`zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

2) so`zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so`zlarni o`zlashtirish;

3) so`zlarning sinonimlarini, sinonim so`zlarning ma'no qirralarini o`zlashtirish;

4) ayrim frazeologik birliklar (iboralar) ning ma'nosini o`zlashtirish.

5) Lug`atni faollashtirish, ya'ni o`quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faolyatida ishlatmaydigan nofaol lug`atidagi so`zlarni faol lug`atiga o'tkazish.

Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarini qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlataladi. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniغا adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlataladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

3. O'quvchilarning so`z boyligini takomillashtiruvchi va boyituvchi vositalardan biri bu atrof- muhitdir. Shuning uchun darsdan tashqari holatlarda o'quvchilarni turli ekskursiyalarga olib chiqish juda katta ahamiyatga egadir. Chunki, tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan ko'pgina yangi nom va iboralarni o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi , ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

4. Dars davomida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Bunda o`qituvchi dars davomida turli xil video va audio matnlardan foydalanishi mumkin. Masalan, o`qish darsini oladigan bo`lsak, darslikda berilgan har bir hikoya va ertakni audiosi yoki video variantlarini o'quvchilarga qo`yib berishi hamda bu matnni kitoblardan foydalanmagan holda o'quvchilardan gapirib berishlarini so`rash, zarur dars oxirida esa matnda uchragan notanish so`zlar ustidan ishslash, ularning ma`nolarini tushintirib berish zarur.

#### 5. Turli xil didaktik o`yinlardan foydalanish.

Didaktik o`yinlar o'quvchilarning kreativligini, reaksiyaviyigligi hamda zukkoligini o`stiruvchi eng asosiy vositadir. Shuningdek lug`atlar ustida ishslash jarayonida ham didaktik o`yinlardan foydalanish mumkin. Masalan: "Kim ko`p aytadi" didaktik o`yinini olaylik. Bunda o`qituvchi ona tili darslarida har bir dars davomida o`zlashtirilgan so`zlar yuzasidan musobaqa uyushtiradi. Bu o`yinda barcha o'quvchilar ishtirok etadilar. Har bir dars davomida o`zlashtirilgan so`zlarni o'quvchilar bittadan aytadilar. Kimki ayta olmay to`xtab qolsa , o`yindan chetlashtiriladi. O`yin davomida qaysi o'quvchi oxirigacha qolsa, ya`ni so`z ayta olmay to`xtab qolmasa o`sha o'quvchi lider deb topiladi.

#### 6. Lug`at diktantlaridan foydalanish.

Lug'atni boyitishda turli lug`atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang`ich sinf o'quvchilari uchun lug`at diktantlari mavjud. O`qituvchi darsdan tashqari vazifa sifatida o'quvchilardan 10-15 ta so`z yodlab, uning yozilishi va talaffuzini o`rganib

kelishini talab qiladi va haftada ikki marotaba bu so`zlardan lug`at diktantini oladilar.O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlarda)muvaffaqiyatli foydalanishi mumkin.

7. Maxsus mashqlar, grammatika va imloni o`rganish darslarini tashkillashtirish. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o`rganish darslari so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet,belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslar orqali ko`p o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o`rganish jarayonida guruhsanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o`rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar.Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rniда tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'ilsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birlik-ari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda, undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlarni asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirib bo'lmaydi.

Metodikada so'zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'zlarni ularga tushunarli so'zlar qo'llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.
2. So'z ma'nosini lug'atdan va o'qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan

foydanlib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydanlib, so'z ma'nosini mustaqil tnshunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo - shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor -vatan, inshoot - bino, samo - osmon kabi. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'limgan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydanlib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushuncha boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Masalan, o'zboshimchalik-o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis - biror hunar egasi; shunqor- uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh-mol terisidan tikilgan idish; guidon - gill solib qo'yiladigan idish va boshq. Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn — bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasи; ekskavator — bir vaqtning o'zida erni qazib tuproqniyuk mashinasiga ortadigan mashina; aero-drom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq — suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula-okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

**XULOSA.** Dars davomida lug`atlar bilan ishslash, o'quvchilarning lug`at boyligini orttiradi, dunyqarashini kengaytirib, ularning kreativligini rivojlantiradi. Lug'at ustida ishslash ona tili darslarida ham, o'qish darslarida ham reja asosida izchil olib borish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI (REFERENCES):**

1. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida G`ulomova, Sharofat Yo`ldasheva, Sharofjon Sariyev "Lug`at ustida ishslash metodikasi"
2. "O`zbek tili fanidan lug`atlar ustida shlash orqali talabalarning so`z boyligini oshirish" metodik ko`rsatmasi. Toshkent-2005
3. O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000- yil